

O'ZBEKISTONDA DAVLAT INVESTITSİYALARINING RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Eshmatov Davron Abduvaxobovich

Namangan muhandislik-qurilish instituti
o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat investitsiyalarining iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi o'rni, ahamiyati va ularning samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat investitsiyalarining asosiy yo'nalishlari, ularning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta'siri va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar yoritiladi. Maqolada davlat investitsiyalarini jalb etishda uchraydigan asosiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va ularga yechim sifatida taklif etilayotgan strategik chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: davlat investitsiyalari, iqtisodiy rivojlanish, investitsion muhit, investitsiya siyosati, islohotlar, samaradorlik.

Аннотация

В статье анализируются роль и значение государственных инвестиций в процессе развития экономики Республики Узбекистан, а также вопросы повышения их эффективности. В нем также рассматриваются основные направления государственных инвестиций, их влияние на различные секторы экономики, а также реформы, направленные на улучшение инвестиционного климата. В статье рассматриваются основные проблемы, возникающие при привлечении государственных инвестиций, причины их возникновения, а также стратегические меры, предлагаемые для их решения. По результатам исследования даются рекомендации по повышению эффективности инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: государственные инвестиции, экономическое развитие, инвестиционный климат, инвестиционная политика, реформы, эффективность.

Abstract

This article analyzes the role and importance of public investments in the process of economic development in the Republic of Uzbekistan, as well as issues of increasing their efficiency. It also covers the main directions of public investments, their impact on various sectors of the economy, and reforms aimed at improving the investment climate. The article discusses the main problems encountered in attracting public investments, their causes, and strategic measures proposed as solutions to them. Based on the results of the study, recommendations are made to increase the efficiency of investment activities.

Keywords: public investment, economic development, investment climate, investment policy, reforms, efficiency.

KIRISH

Mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va strategik maqsadlariga erishishda davlat investitsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular infratuzilmani modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, ijtimoiy sohaga ko'maklashish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda asosiy moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Shu bois, davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish va ularning iqtisodiyotga ta'sirini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston so'nggi yillarda investitsiya siyosatini izchil isloh qilish, xususiyl sektorni qo'llab-quvvatlash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida muhim yutuqlarga erishdi. Davlat investitsiyalari iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, tarmoqlarni rivojlantirish hamda ijtimoiyl loyihalarni amalga oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, investitsiya mablag'larini yanada samarali taqsimlash, byurokratik jarayonlarni soddalashtirish va loyihalarning natijadorligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Davlat investitsiyalari iqtisodiy rivojlanish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular xususiyl tadbirkorlik kamroq qiziqish bildiradigan, ammo strategik ahamiyatga ega tarmoqlarga, jumladan, ijtimoiyl loyihalarga sarmoya yo'naltirish orqali jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Davlat investitsiyalari nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki xususiyl sektor rivojlanishi uchun ham qulay sharoit yaratadi.

Zamonaviyl sharoitda davlat investitsiyalari tizimini huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, ularning moliyalashtirish manbalari va shakllarini diversifikatsiya qilish, shuningdek, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shaffoflikni oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Davlat investitsiyalari mamlakatning ijtimoiyl-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning samarali vositasi bo'lib, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishi kerak. Bu boradagi islohotlarning davom ettirilishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga ko'maklashadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat investitsiyalarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ularning samaradorligini oshirish masalalari xalqaro va mahalliy ilmiyl adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Ushbu mavzuga oid nazariyl va amaliyl yondashuvlar xorijiy olimlar – P. Samuelson, J. Keynes, M. Porter, D. North kabi iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ularning ishlari investitsiya siyosati, iqtisodiy o'sish va rivojlanish strategiyalarining ilmiyl asoslarini ochib beradi. [1-4]

O'zbekistonda esa davlat investitsiyalari va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha qator iqtisodchilar tomonidan ilmiyl izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Q. Abdurahmonov, B. Xodiev, U. Burxanov, Sh. Jumayev, M. Toshmatov kabi olimlarning ishlari O'zbekistonning investitsion siyosati, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. [5-9]

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Hukumat qarorlari va Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan taqdim etilgan rasmiyl hisobotlar davlat investitsiyalarining strategik yo'nalishlari va ularning amaliyl natijalari to'g'risida muhim ma'lumotlarni beradi.

Shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) kabi xalqaro moliyaviy institutlarning hisobotlari O'zbekistonning investitsion muhiti va davlat investitsiyalarining samaradorligi bo'yicha xalqaro baholash mezonlarini taqdim etadi.

Mavzuga oid mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat investitsiyalarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha yetarlicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida ularning natijadorligini oshirish, muammolarini bartaraf etish va kelajak strategiyalarini ishlab chiqish masalalari bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda davlat investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish uchun turli metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy usullarga tayangan holda olib borildi:

- Nazariy tahlil – davlat investitsiyalarining iqtisodiy o'sishdagi o'rnini tushuntirish uchun iqtisodiy nazariyalar, jumladan, Keynesian yondashuv, endogen o'sish modeli va institutsional iqtisodiyot nazariyalari o'rganildi.

- Statistik tahlil – O'zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo'mitasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi manbalardan olingan rasmiy ma'lumotlar asosida investitsiyalarning dinamikasi, ularning YAIMga ta'siri va samaradorligi tahlil qilindi.

- Taqqoslash usuli – O'zbekiston tajribasi boshqa rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning davlat investitsiya siyosati bilan taqqoslandi. Ushbu yondashuv orqali samarali investitsiya siyosatini shakllantirishga oid ilg'or tajribalar aniqlab chiqildi.

- Ekspert baholash – iqtisodiy soha mutaxassisleri va investitsiya bo'yicha ekspertlarning fikrlari tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar shakllantirildi.

- Empirik tahlil – davlat investitsiyalarining iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash uchun iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi, sanoat rivojlanishi va infratuzilma loyihalarining natijalari bo'yicha empirik dalillarga asoslangan tahlil o'tkazildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida davlat investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri har tomonlama o'rganilib, ilmiy xulosalar chiqarildi va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini kafolatlaydi. Bunda davlat investorlarning fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish joyi bilan bog'liq holda, shuningdek investorlarning yoki investitsiyalarning kelib chiqish mamlakatiga qarab investorlarni kamsitishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi[10]. Davlat investitsiyalari ssuda va byudjet kapitali yoki byudjetdan tashqari fondlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bunday davlat investitsiyalari uchun mablag'lar soliqlar va davlat korxonalarining foydalari hisobidan olinadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari ulushi, (%)¹

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Asosiy kapitalga investitsiyalarda davlat byudjeti ulushi	7,5	7,3	6,7	6,5	6,1	6,8	7,5	7,2	6,5	6,1
Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi	23	23,1	23,6	23,5	25,6	30,5	36,3	42,8	49,7	52,4
Asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi	58	57,4	57,3	56,2	55,3	51,1	46,4	41,4	38,8	34,8
Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi	11,5	12,2	12,4	13,8	13	11,6	9,8	8,6	5	6,7

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosiy kapitalga investitsiyalarda davlat byudjeti ulushi 2015 yilda 7,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra 6,1 %ga teng bo'lib o'tgan 2023 yilga nisbatan 0,4 %ga kamaygan. 2023 yilga nisbatan bunday holat asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushida (4,0 %ga) ham kuzatildi. Respublika investitsiya siyosatida alohida e'tiborga molik bo'lgan asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushini ortishi bo'lib 2024 yilning dastlabki ma'lumotlariga asosan 2015 yilga nisbatan 29,4 %ga oshib 52,4 %ni tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida Respublika mablag'lari ulushini chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi hisobidan sekin asta kamaytirib borilayotganligidan dalolat beradi.

Davlat investitsiya siyosatining asosiy maqsadi Respublika aholisining farovonligini oshirishdan iboratdir. Davlat resurslarini takror ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklanganligi sababli, ayrim malakali davlat tuzilmalari va organlari yuqori rentabellikdagi korxonalarga mablag'lar kiritib, keyinchalik shu korxonalardan soliq hisobi shaklida daromad oladilar. Davlat bir qator hollarda investor rolini o'ynaydi:

- Iqtisodiyot tarmoqlari milliy miqyosda mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, ya'ni mahsulot davlat korxonalarida ishlab chiqarilganda.
- Investitsiyalar davlat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning bevosita iste'molchisi bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga (infratuzilma, mudofaa sektori va boshqalar) yo'naltirilganda.
- Ijtimoiy soha moliyalashtirish obyekti bo'lib, uning maqsadi aholi turmush darajasini yaxshilash va oshirish bo'lgan taqdirda.
- Investitsiyalar vaqtincha zarar ko'rayotgan korxonalarga berilgan hollarda.

¹Muallif ishlanmasi

Shuni ham ta'kidlash joizki, davlat investitsiyalarini o'z tabiatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Real — ya'ni korxonalarning asosiy fondlariga investitsiyalar.
- Davlat ssudalari shaklidagi moliyaviy ma'lum subsidiyalar yoki grantlar ko'rinishidagi maqsadli kapital transfertlari.

Davlat investitsiyalarini boshqarish jarayoni muayyan bosqichma-bosqich harakatlarni o'z ichiga oladi [11]. Investitsiya jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning mazmuni, ko'lam va davomiyligi jihatidan farqlanishi mumkin. Biroq, ushbu jarayon quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

- Rejalashtirish – Investitsiya loyihasi g'oyasining shakllanishidan uni rasmiylashtirishgacha bo'lgan bosqich. Ushbu jarayonda tahliliy hujjatlar ishlab chiqiladi, unda zarur resurslar, moliyalashtirish manbalari hamda investitsiya kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslab beriladi. Bu bosqich investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

- Investitsiya obyektini yaratish yoki sotib olish – Ushbu bosqichda loyihani amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar bajariladi.

- Obyektni ishga tushirish – Mazkur bosqichda investitsiya objekti daromad olish uchun ishga tushiriladi va foydalanishga topshiriladi.

- Loyihani tugatish – Investitsiya loyihasi yakunlanib, uning natijalari baholanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlat investitsiyalari tushunchasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Faqatgina 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida ushbu konsepsiyaning aniq talqini shakllangan. Ungacha ajratilgan davlat mablag'larining yarmidan ko'pi mazkur toifaga kirmaganligi sababli, iqtisodiy tahlil va baholash jarayonlaridan o'tkazilmagan [12].

Bu borada O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun 2021-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining yangi tahririda keltirilgan Byudjet kodeksining 49-moddasida:[13]

- O'zbekiston Respublikasining Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklari uchun chet el valyutasida ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish.


- Grant asosida yoki foizsiz kreditlar berish yo'li bilan ayrim loyihalarning dastlabki yoki uzil-kesil texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni moliyalashtirish.

- Tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va asbob-uskunalar, strategik ahamiyatga molik boshqa tovarlar xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish.

- Ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik milliy davlat dasturlarini hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga doir loyihalarni grant asosida moliyalashtirish.

- Qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturlarini (biznes-rejalarini), shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish, qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkon beradigan investitsiya dasturlarini tijorat banklari bilan birgalikda moliyalashtirish masalalari kiritilgan bo'lib, bu davlat kapital qo'yilmalari yoki kreditlar va kreditlarni jalb qilish orqali davlat mulki obyektlariga davlat investitsiyalari loyihalarini amalga oshirilishi mumkinligini ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davlat investitsiya loyihalari uchun aniq talablar mavjud. Shunday qilib, har bir bunday loyiha uchun quyidagilar bo'lishi tavsiya etiladi:



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davlat investitsiya loyihalari uchun aniq talablar¹

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga suyanagan holda ta'kidlash joizki, kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida yuqoridagi talablar ulushining qisqarishi davlat investitsiyalariga xos bo'lgan muhim muammodir. Mamlakatda jozibador sarmoyaviy muhit yaratishga, investorlarga ham siyosiy, ham huquqiy, ham iqtisodiy nuqtai nazardan eng qulay shart-sharoitlarni taqdim etishga harakat qilayotgan davlatni ko'ramiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi xorijiy va milliy investitsiyalarni himoya qilish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, diplomatik aloqalar va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha hech bo'lmaganda umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga javob beradigan milliy qonunchiligini takomillashtirmoqda.

¹ Muallif ishlanmasi

Boshqacha qilib aytganda, investorlar o'z faoliyatini amalga oshirishlari uchun hamma narsa amalga oshiriladi, chunki investitsiyalarni oluvchi ("investor" korxonasi) qanchalik muvaffaqiyatli ishlasa, investitsiyalar va investorning qonuniy huquq va manfaatlari qanchalik himoyalangan bo'lsa, qabul qiluvchi davlatning xalqaro maydonda investitsiya obyekti sifatidagi obro'si shunchalik jozibador bo'ladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish davlatga iqtisodiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish usullari va ularning o'ziga xos vositalarini tanlashga tizimli yondashishni talab qiladi. Jamiyat hayotining individual tutqichlari yoki ularning tanlab, muvozanatsiz kombinatsiyasi bilan samarali ta'sir qila olmaydigan murakkab jarayonlar tartibga solinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda davlat investitsiyalari mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutib, infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishga turtki bermoqda. Davlat tomonidan investitsion muhitni yaxshilash va chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish uchun ayrim muammolarni hal qilish zarur. Xususan, investitsiya loyihalarining iqtisodiy tahlilini chuqurlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish va monitoring tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat investitsiyalarining optimal boshqaruvi va samarali taqsimlanishi iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga hamda innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu sababli, investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Kelgusida davlat investitsiyalarining natijadorligini oshirish va ularni strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va jadal rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Samuelson P. A., Nordhaus W. D. "Economics" – McGraw-Hill, 2010.
2. Keynes J. M. "The General Theory of Employment, Interest, and Money" – Palgrave Macmillan, 1936.
3. Porter M. E. "The Competitive Advantage of Nations" – Free Press, 1990.
4. North D. "Institutions, Institutional Change and Economic Performance" – Cambridge University Press, 1990.
5. Abdurahmonov Q. "Investitsion siyosat va iqtisodiy rivojlanish" – Toshkent, 2021.
6. Xodiev B. "Davlat investitsiyalari va ularning samaradorligi" – Toshkent, 2022.

7. Burxanov U. "O'zbekistonda investitsion muhit va uni takomillashtirish yo'llari" – Toshkent, 2020.
8. Jumayev Sh. "Davlat-xususiy sheriklik: rivojlanish istiqbollari" – Toshkent, 2021.
9. Toshmatov M. "Chet el investitsiyalarini jalb qilishning iqtisodiy asoslari" – Toshkent, 2019.
10. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-4664142?ONDATE=01.01.2023%2000>
11. Гриценко Л. Л. Государственная инвестиционная политика: сущность, цели и задачи / Гриценко Л. Л. // Научные труды Кировоградского национального технического Университета. Экономические науки – 2012. – Вып. 22(2). – с. 89-95.
12. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
13. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni.(yangi tahriri) <https://lex.uz/mact/-2304138>